

«РЎЙХАТГА ОЛИНГАН»

Самарқанд шаҳар ҳокимияти
ҳузуридаги “Ягона дарча”


маркази

2016 йил «19»

07

№ 14331

- рақам билан



Amir
«ТАСДИҚЛАНГАН»

«XOVRENKO NOMIDAGI
SAMARQAND VINO KOMBINATI»

aksiyadorlik jamiyati

aksiyadorlarining

2016 йил 25 июндаги йиллик

умумий йиғилиши

томонидан



N. Ismailov

«XOVRENKO NOMIDAGI
SAMARQAND VINO KOMBINATI»

aksiyadorlik jamiyati

УСТАВИ

(янги тахрири)

Самарқанд шаҳри - 2016 й.

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Ustav O'zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni (matn davomida - Qonun) va boshqa qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyat o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni (06.05.2014y. O'RQ-370-son) va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

1.3. «Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati» aksiyadorlik jamiyati, bundan keyin «jamiyat» deb nomlanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasining 1994 yil 29 dekabrda 791-PO-sonli Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinatini ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to'g'risidagi buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan.

Jamiyat Samarqand viloyati adliya boshqarmasida 1995 yil 11 aprel kuni 239-raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Yangi tahrirdagi Ustav 2005 yil 19 sentyabrda Samarqand shahar hokimligi huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan jamiyatning Ustaviga asosan ishlab chiqilgan.

1.4. Jamiyatning to'liq firma nomi:

O'zbek tilida:

kirill alifbosida - «Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati» aksiyadorlik jamiyati;

lotin alifbosida - «XOVRENKO NOMIDAGI SAMARQAND VINO KOMBINATI» aksiyadorlik jamiyati.

Rus tilida: Aksionernoye obshchestvo «Samarkandskiy vinkombinat imeni Xovrenko».

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

O'zbek tilida:

kirill alifbosida - «Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati» AJ;

lotin alifbosida - «XOVRENKO NOMIDAGI SAMARQAND VINO KOMBINATI» AJ.

Rus tilida: AO «Samarkandskiy vinkombinat imeni Xovrenko».

1.5. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tashkil etilgan.

1.6. Jamiyat o'z maqsadi va faoliyatiga ko'ra o'z nomidan shartnomalar va boshqa kelishuvlarni tuzish, mulkiy va nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi va majburiyatlarni bajarish, xo'jalik va boshqa sudlarda da'vogar yoki javobgar bo'lishi mumkin.

1.7. Jamiyat O'zbekiston Respublikasida harakatdagi qonunlarga asosan:

1. a) O'zbekiston Respublikasining hududida va undan tashqarida yuridik va jismoniy shaxslar bilan turli yo'nalishdagi xatti harakatlarni amalga oshiradi va qonuniy hujjatlarni tuzadi;

2. b) O'zbekiston Respublikasi hududida va chet el mamalakatlarida uzining bo'linmalarini, tizimiy birliklarini, qo'shma korxonalarini va vakolatxonalarini tashkil etadi;
3. v) tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshiradi;
4. g) xoldinglarga, konsernlarga, assosiasiyalarga va birlashmalarga kiradi;
5. d) O'zbekiston Respublikasida harakatdagi qonunchiliklarda yuridik shaxslarga berilgan boshqa huquqlardan foydalanadi.

1.8. Jamiyat o'zining ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini O'zbekiston Respublikasida harakatdagi qonunlar va qonunchilik aktlar asosida hamda mazkur Ustav asosida olib boradi.

1.9. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, o'z nomidagi muhriga va mustaqil balansiga, milliy va chet el valyutasi bo'lgan hisob va boshqa schet raqamlariga egadir. U o'z nomidan shartnomalar tuzadi, mulkiy va shaxsiy-nomulkiy huquqlarga ega bo'ladi va shu majburiyatlarni bajaradi. Sudda, xo'jalik va xakamlilik sudlarida da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.10. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydilar va uning faoliyati bilan bog'liq ziyonlarni o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida to'laydilar.

1.11. Aksiyalar haqining hammasini to'lamagan aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

1.12. Jamiyat o'z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

1.13. Jamiyat filliallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin. Ular jamiyat tomonidan tashkil etilgan mulk bilan uzlarini ta'minlaydi va jamiyat tasdiqlangan nizomlar asosida ish ko'radi.

Filial yoki vakolatxonaning rahbari jamiyat tomonidan tayinlanadi va jamiyat berilgan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

1.14. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

Sho'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

1.15. Jamiyat boshqa jamiyat ishtirokchisi (ta'sischisi) bo'lishi, xoldinglarga, birlashmalarga, assosiasiyalarga, konsernlarga kirishi mumkin.

1.16. Jamiyat uzining pul mablag'larini O'zbekiston Respublikasi va chet mamlakatlari bank muassasalarida joriy hamda boshqa hisoblarida saqlaydi. U barcha xaznaviy, hisob-kitob ishlarini mavjud qoidalar asosida amalga oshiradi.

Jamiyat hisobidan pul ko'chirish yoki berish, jamiyat Boshqaruv raisi va bosh hisobchi qarori bilan amalga oshiriladi.

1.17. Jamiyat mustaqil ravishda ishlab chiqarish va xo'jalik rejalarni ishlab chiqadi hamda uni tasdiqlaydi.

1.18. Jamiyat uzining Ustav faoliyatini bajarish uchun:

1. a) uz faoliyatida, uz ishtirokchilari va ishchilarning avtotransportidan, asbob uskunalaridan foydalanadi va o'z navbatida ularning egalariga ma'lum miqdorda to'lovlar to'laysdi;
2. b) belgilangan tartibda zaruriy holda binolarni, inshootlarni, xonalarni, uskunalarni va asosiy fond kiruvchi boshqa mulklarni oladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va chet elning yuridik va jismoniy shaxslardan shartnoma asosida sotish yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xalq iste'moli tovarlari, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish texnika yo'nalishidagi mahsulotlar, qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlari, xom-ashyo va materiallarni shartnoma asosida oladi;
3. v) mavjud qoidalarga asosan bank muassasalaridan, yuridik va jismoniy shaxslardan uzoq va qisqa muddatli qarzlarni oladi;
4. g) boshqa korxonalariga, tashkilotlarga, muassasalar va shaxslarga unga qarashli bo'lgan binolarni, inshootlarni, uskunalarni transport vositalarini, asboblarni, xom-ashyoni va boshqa material boyliklarni sotish, berish ijaraga berish, bepul vaqtinchalik ishlatish uchun berish va ularni balansdan chiqarishga xaqlidir;
5. d) o'z faoliyati va Ustaviga ko'ra davlat, xo'jalik, shirkatchilik va boshqa jamoa tashkilotlari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomaviy munosabatlarni va boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

1.19. Jamiyat sharnomalar asosida olingan va uzi ishlab chiqargan mahsulotlarni uzi mustaqil ravishda tasdiqlangan narxlarga sotiladi yoki, zarur hollarda esa O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan boshqariladigan davlat bahosida sotadi.

1.20. Jamiyat hisob-kitob va statistik hisobotlarni belgilangan tartibda olib boradi va uning to'g'riligi uchun javob beradi.

1.21. Jamiyat ishlab chiqarish, yuridik va tijorat mustaqillikga egadir.

1.22. Jamiyatning joylashgan yeri (pochta manzili): O'zbekiston Respublikasi, Samarqand shahri, M.Qoshqari ko'chasi, 58-uy. Indeks: 140100.

1.23. Jamiyatning elektron pochta manzili: oao.vinzavodxovrenko@mail.ru, hovrenko@vinsanoat.uz

1.24. Jamiyatning rasmiy veb-sayti: www.xovrenko.uz

1. JAMIYAT FAOLIYAT SOHASI

(ASOSIY YO'NALISHLARI) VA MAQSADLARI

2.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

2.2. Jamiyat asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- vino materiallari, vino konyak, liker-arog mahsulotlari va uzumdan spirt-xom-ashyo ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat tovarlari va mahsulotlari, sharbat, konserva mahsulotlari, mineral va oshxona ichimlik suvlarini, pivo va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish;

- xalq iste'moli mollari (tikilgan kiyimlar, attorlik, trikotaj, tuqimachilik, va sovg'abop mahsulotlar, metallardan, yog'ochdan, plastmassadan, charmdan, medel) ishlab chiqarish;
- qurilish materiallari va konstruksiyalar ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarish texnika yo'nalishdagi mahsulot ishlab chiqarish;
- yuridik va jismoniy shaxslardan jun, qorakul, kun xom ashyosi va quruq mevalarni, qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarini, ikkilamchi xom ashyoni, makulaturani, temir-tersakni tayyorlash, ularni sotish yoki sanoat asosida qayta ishlashni tashkillashtirish;
- yuridik va yakka shaxslarning barcha markadagi avtomashinalariga va avtotransportiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash;
- oziq-ovqat tovarlari va mahsulotlari, liker va aroq mahsulotlari, konyak, vino, qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlari, xalq iste'mol mollari (tikilgan kiyimlar, attorlik, trikotaj, tuqimachilik, va sovg'abop mahsulotlar, temirdan, yog'ochdan, plastmassadan va teridan mahsulotlar), ishlab chiqarish va texnika yo'nalishidagi mahsulotlar, yoqilgi-moylash materiallari, benzin, gaz, qurilish materiallari va konstruksiyalari, uskunalar, mexanizmlar, mashinalar, ehtiyot qismlar, mebellar, tibbiyot preparatlar va dori-darmonlar bilan kutara, chakana va vositachilik savdoni tashkil qilish;
- savdo-sotib olish va savdo vositachilik faoliyati, firma savdosini tashkil qilish;
- audio va video apparaturalarni, kompyuterlar va orgtexnikalarni, aloqa vositalarini, elektr-maishiy texnikani, ilg'or texnologiyani, uskunalarni, mashinalarni, mexanizmlarni, ehtiyot qismlarni, mebelni, ishlab-chiqarish va texnika yo'nalishidagi mahsulotlarni, oziq-ovqat tovarlarini va mahsulotlarini, qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarini, liker va aroq mahsulotlarini, konyak, vino, tibbiyot uskunalarini va dori-darmonlarini inport qilish va ularni yuridik va jismoniy shaxslarga kutara va chakana savdo orqali sotish.
- yuridik va yakka shaxslarga kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish (kiyim tikish atelyesi, poyafzal ta'miri, kiyimlarni kimyoviy usulda tozalash, yuvish, sartaroshlik, uy-ruzg'or buyumlar ta'miri, audio videotexnika, radioapparaturalar ta'miri, milliy musiqa asboblarni ta'mirlashva tayyorlash, pulli hojatxona);
- sayyohlarni, shu jumladan chet ellik sayyohlarni qabul qilish, junatish va ularga servis xizmat ko'rsatish;
- jismoniy va yuridik shaxslar buyurtmasi asosida ta'mirlash, qurilish va montaj ishlarini bajarish;
- umumiy ovqatlanish korxonalarini (restoranlar, barlar, qahvaxonalar, bufetlar, oshxonalar, choyxonalar) tashkillashtirish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o'rnatilgan tartibda amalga oshirishi mumkin.

2.3. Maxsus ruxsatnoma (lisenziya) talab qilinadigan faoliyat turlari tegishli ruxsatnoma (lisenziya) olingandan so'ng amalga oshiriladi.

III. JAMIYAT USTAV KAPITALINING MIQDORI

3.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

3.2. Jamiyatning ustav kapitali 1 637 585 760 (bir milliard olti yuz o'ttiz yetti million besh yuz sakson besh ming yetti yuz oltmish) so'mni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 1 068 so'm bo'lgan 1 533 320 dona oddiy aksiyalarga bo'lingan.

Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish

3.3. Jamiyatning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

3.4. Jamiyatning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi va jamiyat ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

3.5. Qo'shimcha aksiyalar jamiyat tomonidan ushbu ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtiriladi.

Jamiyat ustav kapitalini oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha ravishda chiqarish mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalari miqdori – nominal qiymati 1 068 so'mdan bo'lgan 1 000 000 dona egasi yozilgan oddiy aksiyalarndan iborat.

3.7. Qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha aksiyalarning umumiy qiymati, soni, turi, nominal qiymati, joylashtirish tartibi, usuli, muddati, joylashtirish (aksiyalarning birja va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxi, aksiyalar uchun to'lov tartibi, amalga oshmagan deb topish ulushi va amalga oshmagan deb topilgan taqdirda aksiyalar uchun qabul qilingan to'lov vositalarini qaytarish tartibi belgilanadi.

3.8. Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq obuna usuli bilan belgilangan tartibda fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzish yo'li bilan birja yoki birjadan tashqari uyushgan bozorda joylashtiriladi.

3.9. Qo'shimcha chiqarilgan aksiyalar bozor qiymatida, lekin nominal qiymatidan kam bo'lmagan qiymatda joylashtiriladi.

3.10. Jamiyatning aksiyalariga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pul vositasida amalga oshiriladi.

Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish

3.11. Jamiyatning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

3.12. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

3.13. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

1. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI VA ULAR

BO'YICHA DIVIDENDLAR TO'LASH TARTIBI

- 4.1. Jamiyatning aksiyalari oddiy bo'lib, emissiyaviy qimmatli qog'ozlar hisoblanadi.
- 4.2. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi
- 4.3. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.
- 4.4. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.
- 4.5. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.
- 4.6. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.
- 4.7. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.
- 4.8. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.
- 4.9. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.
- 4.10. Jamiyat tomonidan o'tgan moliyaviy yil uchun belgilangan biznes reja parametrlarining sof foyda ko'rsatkichi bajarilgan taqdirda, jamiyatning homiylik va boshqa qaytarilmaydigan yordamlar uchun xarajatlari o'tgan yil sof foydasining 10 foizidan ortib ketmasligi shart.

1. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Jamiyat aksiyadorlari:

Jamiyat aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;

depozitariydagi depo hisobvarag'idan o'ziga taalluqli ko'chirma olish;

Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudga o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

Aksiyadorlar qonun hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.2. Aksiyadorlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va ko'zda tutilgan hollarda o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqli.

6.3. Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

6.4. Har bir oddiy aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

6.5. Aksiyadorning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etishi, dividendlar olishi va Jamiyat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi Jamiyat aksiyadorlarining reyestri asosida amalga oshiriladi.

6.6. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni - mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

6.7. Jamiyat aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

Jamiyatning aksiyalariga qonun hujjatlarida, ushbu Ustavda va aksiya chiqarilishi to'g'risidagi qarorlarda ko'zda tutilgan tartibda, usullarda va muddatlarda haq to'lash;

Jamiyat faoliyati to'g'risidagi maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

Aksiyadorlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.8. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida

belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

Depo hisobvarag'idan ko'chirma aksiyadorning aksiyalarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, depozitariy tomonidan beriladigan hujjatdir.

JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

5.1. Jamiyat sof foyda hisobidan zaxira fondini hamda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida aniqlanadigan, jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlarni tashkil etadi.

5.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, jamiyatning korporativ obligasiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

5.3. Jamiyat ustav kapitalining 15 foizdan kam bo'lmagan miqdorda jamiyat zaxira fondi tuziladi.

5.4. Jamiyat zaxira fondiga ushbu ustavning 5.3-bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

5.5. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILMASI

6.1. Jamiyat boshqaruv organlari - Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi - Boshqaruv.

VII. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

7.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

7.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini) o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

7.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

- jamiyatni qayta tashkil etish;
- jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- o'z aksiyalarini olish;
- jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning rahbari va a'zolarini saylash hamda rahbar va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
- jamiyatning yillik hisobotini va yillik biznes-rejasini, shuningdek jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
- Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bitimlarni aniqlash;
- jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;
- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;
- aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

7.4. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar yig'ilish bayonnomasi imzolangan kundan ikki ish kunidan kechiktirmay, shuningdek ovoz berish yakunlari ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay qonun hujjatlarida belgilangan tartibda aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

7.5. Quyidagi masalalar bo'yicha qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi:

- jamiyat ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;
- jamiyatni qayta tashkil etish;

- jamiyatni tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;
- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- jamiyat Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;
- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan yirik bitimlar tuzish.
- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda jamiyat tomonidan affillangan shaxs bilan bitimlarni ma'qullash.

7.6. Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishi jamiyatning «Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida»gi Nizom asosida chaqiriladi va o'tkaziladi.

VIII. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

8.1. Jamiyat Kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

8.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan bir yillik muddatga saylanadilar. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 7 kishidan iborat.

8.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni

ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;
- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;
- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;
- jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;
- avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish;
- jamiyat ustaviga jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;
- jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va (yoki) kompensasiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifalarini vaqtincha bajaruvchini tayinlash;
- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

8.4. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

8.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

8.6. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

8.7. Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

8.8. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Zaruriyatga ko'ra jamiyat Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlislari ham o'tkazilishi mumkin.

8.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarori Kuzatuv kengashga saylangan a'zolarining kamida yetmish besh foizi ishtirok etganida qonuniy hisoblanadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar qonunchilikda boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, jamiyat Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

8.10. Jamiyat Kuzatuv kengashi jamiyatning «Kuzatuv kengashi to'g'risida»gi Nizom asosida ish olib boradi.

JAMIYATNING IJROIYA ORGANI

9.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial ijroiya organ - Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruv 7 kishidan iborat bo'lib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida bir yil muddatga saylanadi.

9.2. Boshqaruv a'zolarining huquqlari va majburiyatlari ularning har biri jamiyat bilan bir yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qaror qabul qilinadi.

9.3. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadigan jamiyat ijroiya organi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, jamiyat kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

9.4. Boshqaruv faoliyati ustidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadigan Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining jamiyat Boshqaruv raisi tayinlash to'g'risidagi qarori, odatda, xorijiy menedjerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinishi mumkin.

9.5. Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini jamiyat nomidan jamiyat kuzatuv kengashi raisi imzolaydi.

9.6. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

9.7. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

9.8. Jamiyat Boshqaruvining vakolatlariga jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki jamiyat kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

9.9. Jamiyat Boshqaruv raisi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- mazkur Ustav va jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan o'ziga berilgan vakolatlarga muvofiq jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

- jamiyat kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

- jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;

- shtatlar ro'yxati va lavozim maoshlarini tasdiqlaydi, jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

- jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;

- jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi;

- o'z vakolatlari doirasida jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va jamiyat kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida takdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi;

- sotiladigan mahsulotlarga narx belgilaydi va ko'rsatiladigan xizmatga tariflarini tasdiqlaydi;

- amaldagi qonun hujjatlariga hamda jamiyat ichki hujjatlariga rioya qiladi.

9.10. Jamiyat boshqaruvi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

9.11. Jamiyat boshqaruvi qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq jamiyat oldida javobgardir.

9.12. Jamiyat Boshqaruvi mazkur Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Ijroiya organi to'g'risida»gi Nizom asosida ish olib boradi.

1. JAMIYATNING TAFTISH KOMISSIYASI

10.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi taftish komissiyasini bir yil muddatga saylaydi. Jamiyat taftish komissiyasi 3 kishidan iborat.

10.2. Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlari:

- jamiyatning barcha xizmat xonalariga to'siqsiz kirish;
- moliyaviy hujjatlarni va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini tekshirish;
- buxgalteriya va statistik hisoblarni amaldagi normativ xujjatlarga munosibligini taxlil qilish;
- moliyaviy - xo'jalik va ishlab chiqarish faoliyatida o'rnatilgan normativ, qoidalarga va davlat standartlariga rioya qilinayotganligini tekshirish;
- jamiyatning moliyaviy ahvolini tahlil qilish, uning to'lov qobiliyatini, tugatilishini, o'zining va zayom mablag'larini nisbatini, jamiyatning iqtisodiy holati yaxshilanishiga rezervlarni ta'sirini tahlil qildish;
- soliq inspeksiyasi, statistik va boshqa davlat boshqaruvi organlari uchun tuzilgan balans, hisobot hujjatlarni to'g'riligini tekshirish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarini taxlil qilish, qarorlar jamiyatning xujjatlariga, ya'ni amaldagi qonun va qonunosti hujjatlar talablariga to'g'ri kelmasliklari aniqlanganda takliflar kiritish.
- ish jildlaridan ayrim hujjatlarni olish (ish jildlarida hujjatlar olinishi to'g'risidagi dalolatnoma va olingan hujjatlar nusxalarini qoldirish), agarda tekshiruv mobaynida kalbakilashtirish, soxtalashtirish yoki boshqa suiste'molchilik holatlari aniqlanadigan bo'lsa:
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat ijroiya apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va xodimlaridan tekshiruv mobaynida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha yozma tushuntirishlar olish;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat ijroiya apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan zudlik bilan choralarni ko'rish to'g'risida ko'rsatmalar berish, agarda bunday choralarni ko'rmaslik qimmatliklarning, hujjatlarning yo'q bo'lishiga yoki kelgusidagi suiste'molchilik holatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lsa;
- jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini, jamiyat kuzatuv kengashi majlislarini o'tkazilishini O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda talab qilish;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari, jamiyat alohida bo'linmalari va jamiyat ijroiya apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan Taftish komissiyasi jamiyatning moliyaviy va xo'jalik faoliyatini tekshirilishini o'tkazishi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va materiallarni so'rab olish;
- jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslariga jamiyat xodimlari, shu jumladan jamiyat boshqaruv organlari mansabdor shaxslariga nisbatan agarda ular tomonidan jamiyat Ustavi va jamiyat ichki hujjatlari qoidalari buzilgan bo'lsa, intizomiy va

moddiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish to'g'risidagi masalasini ko'rib chiqishga kiritish.

10.3. Jamiyat taftish komissiyasining talabiga binoan jamiyatning Boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga takdim etishlari shart.

10.4. Jamiyatning taftish komissiyasi amaldagi qonunchilikka muvofiq aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqirilishini talab qilishga haqli.

10.5. Jamiyat taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, shuningdek jamiyatning boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Ayni bir shaxs ayni bir jamiyatning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

10.6. Jamiyat taftish komissiyasi faoliyatining tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan «Jamiyat taftish komissiyasi to'g'risida»gi Nizomda belgilab qo'yiladi.

YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar aksiyadorlarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

11.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

11.3. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.